

**“Kapitalbank” ATB Boshqaruvining qarori bilan
“TASDIQLANGAN”**

**2025-yil 6-noyabr
(77/25-sonli bayyonomadan ko’chirma)**

**Bank Boshqaruvi Raisi
/imzo/ K.L.Mayevskiy**

**Dumaloq muhr: birinchi doira ichida:
O’zbekiston Respublikasi Toshkent shahri
ikkinchi doira ichida:
“Kapitalbank” Aksiyadorlik tijorat banki
uchinch doira ichida:
Bank logotipi**

**"KAPITALBANK" ATB “YAGONA FILIALI”DA JISMONIY SHAXSLARGA KOMPLEKS BANK
XIZMATLARINI KO’RSATISH QOIDALARIGA KIRITILGAN QO‘SHIMCHA VA
O‘ZGARTIRISHLAR**

TOSHKENT-2025

I. "Kapitalbank" ATB Boshqaruvining 2019-yil 25-dekabrda 41-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Kapitalbank" ATB "Yagona filiali"da jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga (bundan keyin matnda "Qoidalar" deb yuritiladi) quyidagi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin:

1.1. 1-ilovaga ("Jismoniy shaxsning so'mlik plastik kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish hamda ijro qilish tartibi") quyidagi mazmundagi **3.23., 3.24. va 3.25-bandlar qo'shilsin:**

"3.23. Mijoz o'z roziligini beradi va Bankka so'nggi 3 (uch) oy ichida Karta va/yoki Karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan hamda Karta va/yoki Karta hisobvarag'ida pul mablag'lari qoldig'i mavjud bo'lmagan holatlarda Kartani bir tomonlama tartibda blokirovka qilish bo'yicha vakolat beradi.

3.24. Mijoz o'z roziligini beradi va Bankka 1 (bir) yil davomida Karta va/yoki Karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan, biroq Karta va/yoki Karta hisobvarag'ida pul mablag'lari qoldig'i mavjud bo'lgan holatlarda Kartani bir tomonlama tartibda blokirovka qilish bo'yicha vakolat beradi.

3.25. Mijoz Bankka firibgarlikning oldini olish talablari doirasida, Bankning vaqtinchalik belgilangan ichki me'yorlaridan ortiq miqdorda ochilgan bank kartalarini, mijozni SMS-xabar yoki Qoidalar va Tartibda nazarda tutilgan boshqa usullar orqali xabardor qilgan holda blokirovka qilish huquqini beradi va bunga o'z roziligini bildiradi (oldindan berilgan aksept)".

1.2. 1-ilovaga ("Jismoniy shaxsning so'mlik plastik kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish hamda ijro qilish tartibi") **quyidagi mazmundagi 7.7-band kiritilsin:**

"7.7. Agar so'nggi Amaliyot sanasidan boshlab 1 (bir) yil davomida Karta va/yoki Karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar amalga oshirilmagan bo'lsa hamda Karta va/yoki Karta hisobvarag'ida pul mablag'lari qoldig'i mavjud bo'lsa, Shartnoma o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi. Mijoz ushbu bandning Karta hisobvarag'i va Kartani yopish to'g'risidagi o'z Arizasi ekanligini tasdiqlaydi".

1.3. 2-ilovaning ("Jismoniy shaxsning so'mlik plastik kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish hamda ijro qilish tartibi") **4.1.14-bandni quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

"4.1.14. Ruqsatsiz overdraft bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan paytdan boshlab 30 kun ichida, Avtorizatsiya jarayonisiz Kartani to'lovga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan savdo (xizmat ko'rsatish) korxonalarida Kartadan foydalanish natijasida yuzaga kelgan ruqsatsiz overdraft summasiga teng bo'lgan qarzdorlikni **to'lash lozim**. Ruqsatsiz overdraft bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni Masofaviy bank xizmatlari orqali va/yoki Bank ofisida to'lash mumkin".

1.4. 2-ilova ("Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish hamda ijro qilish tartibi") quyidagi mazmundagi **5.3. va 5.3.1-bandlar bilan to'ldirilsin:**

"5.3. Mijozning hisobvarag'i va/yoki kartasida pul mablag'lari ikki marta aks ettirilgan va Mijoz tomonidan asossiz sarflangan hollarda yoki debet kartasi va/yoki hisobvarag'i bo'yicha overdraftga (qarzdorlikka) yo'l qo'yilgan taqdirda, Bank Mijozning "Kapitalbank" ATBdagi milliy yoki xorijiy valyutadagi barcha hisobvaraqlari/kartalaridan, ular mavjud bo'lmaganda esa - Mijozning milliy yoki xorijiy valyutadagi boshqa hisobvaraqlari va bank kartalaridan pul mablag'larini qaytarib bo'lmaydigan va so'zsiz tartibda hisobdan chiqarish huquqiga ega bo'ladi.

Mazkur huquq pul mablag'larining ikki marta aks ettirilishi yoki debet kartasi va/yoki hisobvarag'i bo'yicha overdraft (qarzdorlik) tufayli yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun qo'llaniladi.

5.3.1. Mazkur Tartibning 5.3-bandida ko'rsatilgan qarzdorlik Mijozning milliy valyutadagi hisobvaraqlari/kartalaridan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisobdan chiqarish kunidagi amaldagi kursi bo'yicha milliy valyuta - "so'm"da hisobdan chiqariladi".

1.5. 2-ilova ("Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish hamda ijro qilish tartibi") quyidagi tahrirdagi **3.34, 3.35 va 3.36-bandlar** bilan to'ldirilsin:

"3.34. Mijoz o'z roziligini beradi va Bankka Karta va/yoki Karta hisobvarag'i bo'yicha so'nggi 3 (uch) oy davomida operatsiyalar amalga oshirilmagan hamda Karta va/yoki Karta hisobvarag'ida pul mablag'lari qoldiqlari mavjud bo'lmagan taqdirda, Kartani bir tomonlama tartibda blokirovka qilish huquqini beradi.

3.35. Mijoz o'z roziligini beradi va Bankka Karta va/yoki Karta hisobvarag'i bo'yicha 1 (bir) yil davomida operatsiyalar amalga oshirilmagan, biroq Karta va/yoki Karta hisobvarag'ida pul mablag'lari qoldiqlari mavjud bo'lgan taqdirda, Kartani bir tomonlama tartibda blokirovka qilish huquqini beradi. Bunda Bank Mijozni SMS-xabar orqali xabardor etadi.

3.36. Oxirgi Operatsiya sanasidan boshlab 1 (bir) yil davomida Karta va/yoki Karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan hamda Karta va/yoki Karta hisobvarag'ida pul mablag'lari qoldiqlari mavjud bo'lmagan taqdirda, Shartnoma o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi. Mijoz ushbu band Karta hisobvarag'i va Kartani yopish to'g'risidagi o'z arizasi ekanligini tasdiqlaydi".

1.6. 2-ilova ("Jismoniy shaxsning xalqaro plastik kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish hamda ijro qilish tartibi") quyidagi mazmundagi **5.4-band bilan** to'ldirilsin:

"5.4. Mijoz o'z roziligini beradi va Bankka debet kartasi va/yoki hisobvarag'i bo'yicha overdraft (qarzdorlik) yuzaga kelgan sanadan boshlab 30 kun o'tgach, Mijoz tomonidan yo'l qo'yilgan overdraft (qarzdorlik) munosabati bilan Kartani bir tomonlama tartibda blokirovka qilish huquqini beradi".

II. Mijozlar i Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida Bankning Internetdagi www.kapital24.uz veb-saytida tegishli e'lonni joylashtirish orqali xabardor etilsin.

Kiritilgan:

<i>Chakana biznes departamenti direktori</i>	<i>/imzo/</i>	N.E.Nuritdinova
<i>To'lov tizimlari va xizmatlari departamenti direktori</i>	<i>/imzo/</i>	R.R.Temirgaliyev

Kelishilgan:

<i>Boshqaruv Raisi o'rinbosari - Boh ijrochi direktor</i>	<i>/imzo/</i>	K.V.Tyan
<i>Boshqaruv Raisi birinchi o'rinbosari</i>	<i>/imzo/</i>	S.S.Ismailov
<i>Boshqaruv Raisi birinchi o'rinbosari</i>	<i>/imzo/</i>	U.U.Tavakkalov
<i>Boshqaruv Raisi birinchi o'rinbosari</i>	<i>/imzo/</i>	A.P.Glushenko
<i>Boshqaruv Raisi birinchi o'rinbosari</i>	<i>/imzo/</i>	Ye.A.Yenikeyeva